



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA AMALIYOTI MASALALARI

ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATI POETIK TARAQQIYOTIGA XALQ KULGI SAN'ATINING TA'SIRI MASALASIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Ahmadova Ferangiz Hamza qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqlol davri she'riyati poetik taraqqiyotiga xalq kulgi san'atining ta'siri masalasiga oid ayrim mulohazalar ilmy – nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: poetik mahorat, xalq kulgi madaniyati, insonning ikkinchi tabiati, ijobiy ta'sir, kompositsion jihat, og'zaki drama, shoir, voqelik, tasviri, makon.

Badiiyat me'zonlariga ko'ra yozilgan asarlarda bir qancha talablarni ado etish zarur bo'ladi. Muallif turli xil vaziyatlarni yoritishda o'quvchilarni voqealarga nafaqat guvoh, balki hodisaning ishtirokchisiga aylantira olsagina, asarning muvoffaqiyatini ta'minlagan bo'ladi. Bu esa poetik mahorat bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan yondashsak, badiiy asarda kulgi uyg'otuvchi vositalarni o'rinli qo'llash ijodkordan yuksak mahoratni talab qiladi.

Kulgi insonning voqea–hodisalarga o'ziga xos munosabatidir. Bunday qarashni mavjud voqelik va uning beo'xshov tomonlari tashkil etadi. Adabiyot esa bu imtiyozlardan keng va chuqur foydalana oldi.

Sharq adabiyoti durdonalarida kulgi– insonning ikkinchi tabiati,–deb e'tirof etiladi. Ana shu sabablar ta'sirida ilk asrlarda xalq kulgi madaniyatiga bag'rikenglik (nisbatan bag'rikenglik, albatta) munosabat an'anasi shakllandi. Bu an'ana yashashda davom etdi va istiqlol davri she'riyatiga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Ana shu nuqtai nazardan zamonaviy o'zbek adabiyotining badiiy taraqqiyotida xalq kulgi madaniyatining munosib o'rni mavjud. Xalqning o'sib borayotgan ko'p qirrali ma'naviy talabini qondirish, mustaqillikning ahamiyatini tushuntirish, estetik, ma'naviy va badiiy tafakkurini taraqqiy qildirish, zamonamiz qahramoni obrazini ochib beruvchi yangi, original, kompositsion jihatdan mukammal bo'lgan badiiy asarlarni yaratish jarayonida xalq kulgi san'atining, og'zaki dramaning boy xazinasidan foydalanish ehtiyoji tug'iladi. Holbuki, shoir voqelik tasvirida makon va zamon chegaralarini zabt etmog'i, "tarix atalmish pardani oradan ko'tarib, o'quvchi ko'z o'ngida o'tmishni jonlantirmog'i, davr ruhini ko'rsatib bermog'i lozim"

Fikrimizni yangi davr she'rlari orqali asoslaymiz:

Ne deyishsa, deyishsin, emassizku begona.

Siz mengayu men sizga yor topaylik, dugona.

Shunday deymanu sirdosh, qani o'sha sodiq er?

Go'yo bizga qolganda barchasini yutdi yer .

Ko'pincha, tilimizda hangomalar shavqli, zavqli, sodda, samimiy, qiziq, ertaknamo kabi sifatlar bilan ishlatiladi. Insonlarning bir-biri bilan hangomalashuvi to'yda, o'yin-kulgili ziyofat davralarida, yo'lda yuz beradi. Negmurod Gulliyevning ushbu she'ri shunday xususiyatga ega.

A.Hamdamov aytganidek; "asardagi yumoristik mazmunning kulminatsiyasi bilan yechimi bir paytga to'g'ri keladi" . Mana shu kutilmagan yechim, xuddi latifalardagidek favqulodda kulgini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, kulgi sahnalarida ba'zan ayanchli ahvolga sababchi bo'lganlarni so'kish holati kuzatiladi. Bu so'kinish haqiqatni ochishga qaratilganligi bilan nafratga emas, aksincha, kulgi va zavqqa sabab bo'ladi (Go'yo bizga qolganda barchasini yutdi yer).

Kim kelmagan bo'lsa topinglar deydi,

Oyni etak bilan yopinglar deydi.

Salla kerak bo'lsa tamom – vassalom,

Unga qo'shib kalla chopinglar deydi .

Badiiy adabiyotning boshqa namunalari kabi hajviy she'r ham xalq kulgi san'ati asosida paydo bo'lgan poetik shakl hisoblanadi. Tahlillardan shu narsa ma'lumki, she'r yaratilishida tuyg'u va kechinma ta'siri asosiy o'rinni tutadi. "Chinakam lirika boshqa har qanday haqiqiy poeziya kabi inson yuragining mazmunini ifoda qilib berishi kerak". Hajviy she'rlarga asos bo'luvchi xalq kulgi san'ati o'z tabiatidan kelib chiqib, ko'proq sh'erning tug'ilishi va uning umumiy mazmuni, hissiy bo'yog'iga ta'sir qiladi.

Ayniqsa, badiiy adabiyotda xalq kulgi san'atidan, askiya, latifa, loflardan, ularning g'oyaviy mazmunidan foydalanib tasvirlansa. Bunday she'rlarning dinamikasi, kompozitsion qurilishi mustahkam bo'lib, o'quvchida boy tasavvur uyg'otishda va ko'tarinki kayfiyat bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiy hayotiy voqealarni, er-xotin munosabati kabi nozik hodisani latifanamo ijodiy tasvirlash, voqelik zamiriga singdirib yuborish, askiya va latifaga xos detallarni o'rinni qo'llash shu asarga xos badiiy til uslubini yuzaga keltiradi va kitobxonga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi.

Tinglang, so'zlay hikoyat, til odobning onasi,

Satangxonning uyiga keldi tul dugonasi.

Mehmon to'kdi hasratini: -izlab topmadim rohart.

O't ketganmi mahtiga, erkaklar nega qahat ?!

Ba'zan muloqot tortishuvli, munozarali kechadi va bunda suhbatdoshlar bir-biriga kuchli ruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar. Shunday holatlarda muloqotning kinoyali mazmunda kechishini ta'minlovchi qochirimlar, o'xshatmalar, maqollar, naqlar va boshqa turdagi ekspressivlikni ifodalovchi nutqiy tuzilmalarga murojaat qilinadi. Ba'zan kinoya sub'ekti nutq harakatining o'ta yashirin, mazmunli, tagma'nosi yuqori darajada bo'lgan turlaridan foydalanishi mumkin. Bunday hollarda so'zlovchi tinglovchining diqqatini ma'lum muddatga bo'lsa ham haqiqatdan yiroqlashtirish, uning hushyorligini susaytirish amalini qo'llaydi. Ba'zida o'z noroziligini ochiq ifodalash ham qo'l keladi. Kinoya turli mazmundagi nutqiy harakatlarni muloqot matnida faollashtiruvchi uslubiy vositalardan biridir. "Kinoyali nutqiy harakatlar bajarilishidan ko'zlanadigan maqsad- tinglovchiga ta'sir o'tkazish va uni ushbu ta'sir doirasida hosil bo'ladigan faoliyatga undashdir". Zero, shaklan ifodalangan va nutqiy harakat maqsadi bilan bog'liq bo'lgan botiniy ma'nolar qarama-qarshilgisiz kinoya mazmunidagi matn yaratilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalq kulgi san'atining g'oyaviy-estetik prinsiplari va badiiy jihatdan boy manbalari zamonaviy o'zbek adabiyotining ijtimoiy va ruhiy tasvir ifodalarini tom ma'noda yangi o'zanlarga burdi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ijtimoiy hayot, real turmush, hayotiy sharoitdagi ayrim illat va muammolar, ba'zi insonlar xarakteridagi salbiy nuqsonlar ustidan beg'araz va samimiy kulgi qo'zg'atish, ularni xalqona satira va yumor asosida yo keskin fosh etish, yo engil kulgi yo'li bilan tanqid qilish, buni badiiy ijodning barcha turlari - she'riyat, nasr, dramada ko'rsatib berish o'ziga xos adabiy jarayonga aylanganini kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eshonqulov L.N. Yoshlar estetik tafakkurini shakllantirishda hajviylikning kognitiv ahamiyati. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Samarqand, 2022. -B. 15.
2. To'laganova S. Adabiy jarayonda milliy roman muammolari // Sharq yulduzi. - Toshkent, 2023. №3. -B. 110- 111.
3. Gulliyev N. Kitobimni bir o'qing. Toshkent. Ijod. 2022. B-184.
4. Гегель Ф.Б. Эстетика. Т.3. -Москва, 1971. -С.504.
5. Боймирзаева С. Матнда киноя мазмунини ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2008. №4. -Б. 112.